

## V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI <sup>1)</sup>



Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 77 635 385,9 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylari bilan solishtirilganda, foyda hajmi 29 941 870 mln. so'm yoki 62,8 foizga oshdi.

### 2025- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	mln. so'm	
	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>77 635 385,9</b>	<b>162,8</b>
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	5 602 894,4	110,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	72 027 783,4	168,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-52 380,4	-
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-2 917,7	-
Savdo	4 946,9	60,0
Tashish va saqlash	5 914,6	44,1
Qurilish	552,5	14,0
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	31 159,0	-
Ishga joylashtirish	182,0	4,3
Xavfsizlikni ta'minlash va surishtiruv o'tkazish bo'yicha faoliyat	18,0	12,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 377,8	4,1 m.
Binolarga xizmat ko'rsatish va landshaftni obodonlashtirish bo'yicha faoliyat	513,8	165,3
Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat	3,5	106,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11 338,1	101,0

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.


Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga 72 027 783,4 mln. soʻmga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalariga 5 602 894,4 mln. soʻmga, koʻchmas mulk bilan operatsiyalar 31 159,0 mln. soʻmga, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish 11 338,1 mln. yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar 5 377,8 mln. soʻmga soʻmga toʻgʻri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalariga minus - 52 380,4 mln. soʻmga suv bilan taʼminlash kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizasiya qilish -2 917,7 mln. soʻmga toʻgʻri keladi.

### **2025-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (+, -) mln. soʻm</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>77 635 385,9</b>	<b>162,8</b>
Navoiy sh.	77 132 798,9	164,1
Zarafshon sh.	638,5	41,1 m.
Gʻozgʻon sh.	-	-
Karmana t.	671 512,3	134,6
Konimex t.	1 147,6	-
Qiziltepa t.	11 794,7	78,7
Navbahor t.	19 874,1	72,2
Nurota t.	13 430,5	96,3
Tomdi t.	-251 255,0	-
Uchquduq t.	36,3	103,4
Xatirchi t.	35 408,0	97,9

## 2025- yil yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari (2024- yil yanvar-noyabrga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shaharda 77 132 798,9 mln. so‘m, Karmana tumanida 671 512,3 mln. so‘m, Navbahor tumanida 19 874,1 mln. so‘m, Nurota tumanida 13 430,5 mln. so‘m, Qiziltepa tumanida 11 794,7 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida 13 ta korxonalar 339 307,9 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi. Zararning asosiy qismi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

### 2025- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi	
		mln. so‘m	jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>13</b>	<b>339 307,9</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	5	24 941,8	7,4
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2	251 260,5	74,1
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni Konditsiyalash	1	57 880,4	17,1
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	1	2 917,7	0,9
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta‘mirlash	1	1 889,0	0,5
Ishga joylashtirish	1	35,4	-
Qurilish	1	382,6	-
Xavfsizlikni ta‘minlash va surishtiruv o‘tkazish bo‘yicha faoliyat	1	0,5	-

**2025- yil yanvar- noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar summasi, mln. so'm</i>
<b>Jami</b>	<b>13</b>	<b>100,0</b>	<b>339 307,9</b>
Navoiy shashri	5	22,1	75 073,1
Zarafshon shashri	1	1,5	4 996,3
Konimex tumani	2	2,2	7 559,1
Karmana tumani	1	-	35,4
Qiziltepa tumani	1	0,1	382,6
Tomdi tumani	2	74,1	251 260,5
Xatirchi tumani	1	-	0,8

**Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati<sup>1)</sup>**



2025-yil 1-dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 14 180 122,0 mln. so'mni tashkil qildi, shundan muddati o'tgan 12 930,3 mln. so'm yoki jami qarzdorlikning 0,1 foizi.

Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2024-yil 1- dekabriga nisbatan solishtirganimizda 11,5 foizni, jami debitor qarzdorlik 2024-yil 1- dekabriga nisbatan 95,8 foizni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 7 539 347,4 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 53,2 %), Karmana tumani 5 876 537,9 mln. so'm (41,4 %), Tomdi tumani 506 616,2 mln. so'm (3,6 %) Xatirchi tumani 125 999,6 mln. so'm (0,9 %), Navbahor tumani 78 586,8 mln. so'm (0,6 %), to'g'ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Konimex tumani 25 175,4 mln. so'm (0,2 %) Qiziltepa tumani 11 414,7 mln. so'm (0,1 foiz), Zarafshon shahri mln. 9 047,5 so'm (0,1 %) Nurota tumani 7 354,1 mln. so'm (0,1 %), Uchquduq tuman mln. 42,5 so'm (0,0003 %) ga pastligini ko'rish mumkin.

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

**2025- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln.so'm</i>	<i>undan:</i>			<i>Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, % da</i>
		<i>xaridor va buyurtma- chilar</i>	<i>yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	
<b>Jami</b>	<b>12 930,3</b>	<b>11 855,6</b>	<b>199,3</b>	<b>-</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	11 107,4	10 852,6	199,3	-	85,9
Tashish va saqlash	1 822,9	1 002,9	--	-	14,1

2025-yil 1-dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 29 475 900,7 mln. so'm, shundan muddati o'tgan – 690 501,6 mln. so'm yoki jami kreditor qarzdorlikning 2,3 foizni tashkil etdi.

**2025- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln. so'm</i>	<i>undan:</i>					<i>Mudda- ti o'tgan qarzdorlik ning ulushi, % da</i>
		<i>yetkazib beruvchi lar va pudrat- chilarga</i>	<i>olingan avanslar</i>	<i>davlat maqsadli fondlariga to'lovlar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	<i>mehnat ga haq to'lash</i>	
<b>Jami</b>	<b>690 501,6</b>	<b>690 501,6</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	690 501,6	690 501,6	-	-	-	-	100,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-	-	-	-	-	-	-

2025- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 15 295 778,7 mln. so'mni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumanida 4587 223,9 mln. so'm, Tomdi tumanida 286 554,3 mln so'm. Qiziltepa tumanida 2 587,5 mln. hamda Uchquduq tumanida 4,8 mln. so'mga to'g'ri keldi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Debitorlik qarzlari** – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, byudjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

**Kreditorlik qarzlari** – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urta bo'yicha qarz, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischi'larga qarzlari, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

**Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)** – korxonalar va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari va favqulodda xarajatlari chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

**Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar)** – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.

**Muddati o'tgan qarzlari** – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzlarning umumiy summasi.